

O'QUVCHILARDA O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH VA IJODIY YONDASHUV ORQALI UNI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOIIY-TARBIYAVIY ROLI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim 4 kurs talabasi

G'afforova Shahnoza

Annotatsiya: mazkur maqolada o'quvchilar va yoshlar orasida o'qish madaniyatini shakllantirish hamda unga kreativ yondashuvning ijtimoiy va pedagogik ahamiyati yoritilgan. O'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, kitobxonlikni targ'ib qilish va bu orqali ma'naviy hamda intellektual rivojlanishni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va kreativ vositalar orqali o'qish madaniyatini chuqurlashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Ushbu jarayonning ijtimoiy tarbiya va shaxs kamolotidagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'qish madaniyati, kreativlik, kitob, kitobxonlik, maktab, o'yin faoliyati.

Azal-azaldan xalqimiz ijod ahliga alohida mehr va hurmat bilan qarab kelgan. Kitobga bo'lgan muhabbat, uni e'zozlash va o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Zero, yaxshi kitob inson qalbida Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini mustahkamlaydi, uni ezgulikka, yaxshilikka chorlaydi.

Jahon hamjamiyati kun sayin rivojlanib borayotgan XXI asrni "texnika asri", "yuksak texnologiyalar asri", "intellektual taraqqiyot asri" kabi e'tiroflar bilan atamoqda. Albatta, bu gaplarda to'la jon bor. Zero, uzoq va yaqin atrofga nazar solganda, bu sohalarda olamshumul kashfiyotlar yaratilib, odam

bolasining aqlini lol qoldirgulik darajada buyuk ishlar amalga oshirilayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Bugun taraqqiy etgan mamlakatlarda zavod va fabrikalar texnologik jihatdan elektronlashtirilib borilayotgani, badavlat oilalarning uylarini, u yerdagi xo'jalik ishlarini hatto robotlar boshqarayotgani haqidagi ma'lumotlardan xabardormiz. Biroq, hali "Bu ishlarning hammasiga aynan, tafakkur, ya'ni kitobning mislsiz qudrati tufayli erishilmoqda", deganga o'xshash jo'yali fikrlarni deyarli o'**qiyotganimiz** yo'q. Yoki biz yashab turgan asrni qaysidir xalqaro tashkilot bir ovozdan "Kitob asri", "Kitob mo'jizalari asri" deya ko'klarga ko'targanini eshitmadik. Nima uchun?

Fikri ojizimizcha, insoniyat bugungi kunga kelib, asosan iqtisodiy jihatdan foyda ko'rishga ruju qo'yib, deylik, sanoat ishlab chiqarish, farmatsevtika, maishiy xizmat, rangli metallurgiya, neft, gaz va ko'mir ishlab chiqarish kabi tarmoqlarni tez daromad olib keluvchi soha deb hisoblamogda va bor-budini shularga sarflamoqda. Biron aqli butun, ziyoli kishi "hoy, janoblar, bu yutuqlarning mohiyatida aynan, kitobga bo'lgan muhabbatimiz yotadi" degan haqiqatni baralla aytishni xayoliga keltirmayapti.

Kurrai zaminda ana shunday tushunarsiz qarashlar avj olgan bir paytda yurtimizda bu tafakkur mezoni inson hayoti, buguni va kelajagi uchun beqiyos ahamiyatga, yuksak qadr-qimmatga ega ekanligiga yana bir to'la ishonch hosil qildik.

Insonning dunyoqarashini kengaytirishda, mustaqil fikrlashda, hayot sinovlariga bardosh berishda, o'z kelajagini o'zi qurishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Ijod ahlining xalqimizni kitob do'konlarida, kutubxonalarda ko'rishsa, ko'ngllari tog'dek ko'tariladi. Zero, yurtimizda ancha vaqtlardan buyon "Navoiyxonlik", "Boburxonlik", "Qodiriyxonlik" kechalari o'tkazilib kelinmoqda. Prezidentimizning mana shunday savobli ishlarga bosh bo'layotgani esa, yosh avlodni nafaqat bilimdon, tadbirkor, ishbilarmonlar,

keng jamoatchilik, balki kitob ijodkorlarining ham manfaatlarini himoya qilishini bildiradi.

“Beshinchi vazifa - kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilishdir. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormokda. Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va, ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur”. [2] Yurtboshimiz tomonidan qo'yilgan bu vazifalar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish masalasini kun tartibiga qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim jarayonida oiladagi bu an'anani yanada rivojlantirib, mustahkam poydevorni qo'yish juda katta ma'suliyat talab etadi. Yurtboshimiz SH. Mirziyoyev aytganlaridek - “Yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos”. [2]

Demak, milliy mentalitetimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan boy qadriyatlarining davomchisi, xazinasini bo'lgan kitoblarga oshno qalblarga kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning asosiy dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda “o'qish madaniyati”, “kitobxonlik madaniyati”, mutolaa madaniyati, “axborot olish madaniyati” kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisa taqriban deyarli bir ma'noni anglatadi. “Mutolaa” so'zi arabcha o'qish degan ma'noga ega bo'lsada, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A.Umarov fikricha: “Mutolaa madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmagan va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir”. Bizning fikrimizcha, bu jarayonni aynan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari

doirasida tadqiq etganda “o‘qish” terminini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o‘quv-biluv jarayoni o‘qish, o‘rganish, rivojlanish tizimida amal qiladi.

Prezidentimiz bu borada quyidagi fikrlari o‘rinli “...O‘qish-o‘rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyot cho‘qilarini egallashga intilib yashash bir umr hamrohingiz bo‘lsin.

Nega deganda, buyuk mutafakkir yusuf Xos Xojib aytganlaridek, “Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri - o‘rgatuvchi, biri – o‘rganuvchi”. Men sizlarning har biringizga ana shunday haqiqiy inson bo‘lish baxti nasib etishini tilayman”. [3]

Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda va amaliyotda bir qator hodisalar o‘qish madaniyati tushunchasi ostida yuritiladi. Jumladan, o‘qish madaniyati bolalarga badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish yo‘llarini, undan estetik zavq olishni o‘rgatadi.[5] Yuqorida keltirib o‘tilganidek, O‘qish madaniyatini tarbiyalash jarayonini “kitobxonlik madaniyati” termini tarzida ham qo‘llaniladi. Chunki aynan o‘qish madaniyatini egallagan shaxsga nisbatan “kitobxon” terminini ishlatish o‘rinlidir. Safo Matchon ta’biri bilan aytganda: “Kitobxonlik-o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li o‘qishni, ya’ni asar “tili”ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi”. [6] Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: “Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman”. [7.1]

O'qish madaniyati – kitob bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar to'plami, shu jumladan mavzularni ongli ravishda tanlash, o'qishning tizimli va ketma-ketligi, shuningdek bibliografik vositalar yordamida kerakli adabiyotlarni topish, ma'lumotnoma va bibliografik apparatdan foydalanish, oqilona usullarni qo'llash. , o'qilgan narsalarni (tezis, eslatma yozish, izohlash, o'zaro tanishish va boshqalar) maksimal darajada o'zlashtirish va chuqur anglash, bosma asarlarga ehtiyotkorlik bilan ishlov berish.

O'qish madaniyati - o'qish jarayonini maqbul tashkil etish, uning ijtimoiy ahamiyati va boshqa maqsadlariga erishish uchun bilim, qobiliyat, ko'nikmalar to'plami; shaxsiy axborot madaniyati tarkibiy qismlaridan biri (Library Entsklopediya, 2007).

Kitob o'qish madaniyati - bu shaxs bilan umumiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u kitob bilan ishlash, shu jumladan mavzularni ongli tanlash, tizimli va izchil o'qish, shuningdek kerakli adabiyotlarni topa olish ko'nikmalarining to'plamidir. bibliografik vositalar yordamida ma'lumotnoma va bibliografik apparatdan foydalaning, oqilona usullarni qo'llang (guvohlik berish, eslatma olish, izohlash, ko'rib chiqish va boshqalar), o'qiganlaringizni maksimal darajada o'zlashtiring va chuqur idrok eting, bosma asarlarga g'amxo'rlik qiling (Gendina NI).

O'qish madaniyati - kitob bilan ishlash bo'yicha ko'nikma va ko'nikmalar to'plami, o'quvchilar tipologiyasining mezonlari, o'quv vositasi, insonning umumiy madaniyatining bir qismi; kitobga muhabbat, o'qishga qiziqish, o'qilgan narsalarni idrok etish va anglash, ijodiy o'qish, kitobning mohiyatini anglash, o'quvchining ongi, hissiyotlari va tasavvurlarini safarbar qilish (Grinyuk O.I., 2012).

Bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirishga, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob o'qish madaniyatini oshirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda va ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob

mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi qarori va O'zbekistonning 2017 yil 13 sentyabrdagi "O'qish madaniyatini oshirish va targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi", 2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, yozuvchilar va mutafakkirlarning ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitob o'qish musobaqalarini tashkil etish to'g'risida" gi qaror asosida o'zgarishlarga zamin yaratdi.[4]

Zamonaviy axborot jamiyati insonning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga intilmoqda. Ijodkor inson jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladi, salbiy holatlarga qarshi tura oladi, qiyin hayotiy vaziyatlardan chiqishning ijobiy yo'llarini topadi, u o'z imkoniyatlarini, o'z-o'zini rivojlantirishni o'zi anglay oladi. Ammo ijodiy fikrlaydigan odamni tarbiyalashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj maktab amaliyotida to'liq aks etmaydi. Shuning uchun ijodkorni, ijodiy fikrlaydigan odamni tarbiyalash ayniqsa dolzarb va ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Yangi O'zbekistonning ta'limining vazifasi, avvalo, moslashuvchan ongli, har bir yangi narsani o'zlashtirish va ijodiy-kreativ qobiliyatlariga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Tezkor munosabatda bo'ladigan, qo'shimcha bilim va mustaqil harakatlarga to'liq, rivojlangan ehtiyojlar bilan, yaxshi yo'nalish

O'zbek xalqining ma'naviy tiklanishini milliy ongni shakllantirishga badiiy adabiyot ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki adabiyot xalq tarbiyasining vijdon, axloq, umuminsoniy qadriyatlarning faol omillaridan biridir. Hayotimizning barcha sohalaridagi o'zgarishlar to'g'ridan-to'g'ri maktab o'quvchilarining adabiy ta'limiga ta'sir qiladi, chunki adabiyot inson va jamiyatning badiiy turmush tarzidagi barcha qiyinchilik va muammolarga ega aksidir. Biroq, adabiyot o'zining tarbiyaviy rolini bajarishi uchun insonning badiiy asarlarni o'qish qobiliyatini rivojlantirish, badiiy shaklda aks

etgan voqelikni to'g'ri idrok etish, ijobiy obrazlardan o'rnak olish istagini shakllantirish zarur. Bugungi kunda o'quv jarayoni o'quvchilarning bilim qiziqishini, o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirish qobiliyatini rivojlantiradigan tarzda qurish,

Hozirgi kunda yosh avlod hayotida kitoblarning o'rne o'zgarib bormoqda, chunki ulardan foydalanishga ham axborot texnologiyalari, ham televizor ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pincha o'quvchilar ma'lumot manbai sifatida kitob o'rniga shaxsiy kompyuterdan foydalanadilar. Ammo bilim, tasavvur, fikrlash va mulohaza yuritish mantiqi, ona tiliga muhabbat, mantiqiy va obrazli fikrlash qobiliyati faqat o'qish orqali tarbiyalanishini azaldan bilishadi. O'qish uchun, kitobxon bo'lish uchun — bu yuksak san'at, u ko'p o'qishi kerak. Bolalar uchun badiiy kitob - bu kichik o'quvchi aql va qalb bilan anglaydigan alohida dunyo. Kitob bola hayotiga iloji boricha erta kirib borishi juda muhimdir, chunki u diqqatni, kontsentratsiyani rivojlantirishda, aqliy, axloqiy va boshqalarni tarbiyalashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Boshlang'ich maktab asosan bolalar o'qishni yaxshi ko'radimi yoki ular adabiyotga befarq bo'lib qoladimi-yo'qligini aniqlaydi va tizimga solishda asosiy vazifani bajaradi. Aynan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarning qiziqishlarini shakllantirishlari va shaxsning axloqiy madaniyati uchun mustahkam poydevor yaratishlari kerak. O'qish mahorati kelajakda shaxsning ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga asosdir. “Bolaning ruhi badiiy asarga javob berishi va sehrli musiqa bilan jiringlashi uchun uning torlariga teginishi kerak”- deydi V.O. Suxomlinskiy. [11.1]

Zamonaviy bolalar yangi muhit farzandlari bo'lib, ular yuksak axloqning eski g'oyalari tilini tushunmaydilar. Ularning hayoti jonli va samarali ma'noga, boy his-tuyg'ularga to'lishi kerak.

“Ona tili va o'qish savodxonligi” fanining mazmuni va metodikasi axloqiy, estetik tarbiya uchun katta imkoniyatlarga ega; bolalarni badiiy so'zlar

yordamida nutq, intellektual va ijodiy rivojlantirish. Garchi o'qish qobiliyati barcha darslarda va hayotiy vaziyatlarda rivojlansa-da, faqat ona tili va o'qish savodxonligi darslarida u maqsadga muvofiq, tizimli rivojlanish ob'ekti bo'lib, bu qobiliyatni butun hayot davomida o'qitish vositasi bo'lgan to'laqonli mahoratga aylanishiga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga jalb qilish jarayonida biz o'quv jarayonida hissiyot bilan ishtirok etadigan, badiiy asar muallifi bilan suhbatlasha oladigan, o'qishda uning qalbidan joy olgan masalalarni faol muhokama qiladigan, kreativ o'quvchini tayyorlashimiz kerak.

Shunday qilib, ta'kidlanganidek, zamonaviy adabiy ta'limning asosiy vazifasi ijodiy, aqliy, bilish qobiliyatlari rivojlangan, asar ustida ishlash jarayonida muallif g'oyasiga iloji boricha yaqin, tanqidiy fikrlashga tayyor, o'z fikrlarini himoya qilish, uning fikrida munozara mavzusidagi boshqa qarashlarni taqqoslash, diqqatli o'quvchini shakllantirishdir.

Kichik o'quvchilarda o'qish qobiliyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- o'quvchilarga o'qishni o'rgatish;
- o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish;
- o'qishga doimiy ehtiyoj tug'dirish uchun ushbu qiziqishni rivojlantirish;
- yoshi va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob tanlashni o'rgatish;
- o'qilgan asarlarni idrok etish, tushunish va baholash uchun tegishli psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish;
- badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- maktab o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish;
- o'quvchilarning estetik didini doimiy ravishda takomillashtirish ustida ishlash. [11.2]

Agar ushbu muammolarni hal etishga kompleks yondashsak, shunda haqiqiy o'quvchini – kitobxonni shakllantirishda kerakli yutuqlarga erishishimiz mumkin. O'quvchilarning muvaffaqiyatiga ko'plab turli xil omillar ta'sir qiladi. Ammo eng muhimlaridan biri ongli, to'g'ri, aniq va tez o'qish qobiliyatidir. Negaki yaxshi o'qishni bilmaydigan bola uy vazifasini bajarishda biroz qiynaladi, u darslarga qiziqmaydi, u aqliy cheklovlarga va yodlashga o'rganib qoladi. Bunday o'quvchi kutubxonaning faol o'quvchisi bo'lmaydi, kitob bilan aloqa qilishga ehtiyoj sezmaydi, chunki o'qish unga zavq emas, balki zerikish keltiradi.

O'yin faoliyati kichik o'quvchilarning o'qish darslarida badiiy asarlarni qabul qilish sifatini oshirishning samarali vositalaridan biridir. O'qish darsi tarkibida o'yin faoliyati didaktik o'yin, o'yin holati, o'yinni qabul qilish, o'yin mashqlari shaklida bo'ladi. O'yin yosh o'quvchining aqliy jarayonlarini faollashtiradi (his qilish, idrok etish, fikrlash, xayol, xotira, diqqat, iroda, til), bu bola rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Didaktik o'yinlar va o'yin vaziyatlaridan darslarda foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, bolalarda quvnoq, ijodiy kayfiyatni yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchini idrok etish jarayonini tashkil etish vositasi sifatida o'yinga murojaat qilish nafaqat kichik o'quvchining yosh xususiyatlari, balki, avvalo, badiiy asarga juda yaqin bo'lgan adabiy asarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'qish madaniyatini shakllantirish nafaqat ona tili va o'qish savodxonligi darslari balki boshqa fanlar tarkibida kreativ yondoshgan holda didaktik o'yinlarni tashkil etishning afzalligi, mazmuni dastlabki adabiy tushunchalar va hodisalardan iborat bo'lgan didaktik o'yinlardan muntazam foydalanib, badiiy asarni tahlil qilishda ularni o'zlashtirishga muammoli-qidiruv yondoshishda, kichik o'quvchilarning badiiy va ijodiy o'yin faoliyati davomida rivojlanib boradi.

O'qituvchi bolalar uchun kitob bilan doimiy muloqot jarayonida yangi, noma'lum narsani o'rganishga odatlanish imkoniyati mavjud bo'lgan har bir joyda o'qishi kerak. V. Suxomlinskiyning tavsiyalaridan ijodiy foydalanib, “Tabiat o'rtasidagi fikrlash darslari” da o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. Bu “Atrofimizdagi olam”, “Tabiiy fanlar” bilan muloqot bolalarni ko'rgan narsalari haqida o'qigan ertaklari, hikoyalari, she'rlari orqali hissiyotlarni ifoda etishga o'rgatadi. Bunday darslarda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kitoblarni eslab qolishadi, fikrlashni, o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar va obrazli adabiy tilni o'zlashtiradilar. “Tabiiy fanlar” darslarida “Tabiat haqida suhbat” mavzusida o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirishi mumkin. Bu atrofimizdagi olam bilan muloqot bolalarni ko'rgan narsalari haqida yozilgan ertaklar, hikoyalar, she'rlar orqali hissiyotlarni ifoda etishga o'rgatadi. Bunday darslarda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kitoblarni eslab qolishadi, fikrlashni, o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar va obrazli adabiy tilni o'zlashtiradilar.

Shunday qilib, faqat kitob bilan doimiy tanishish va kreativ topshiriqlarni bajarish, bir tomondan, bolada kitobga qiziqishni uyg'otishi, boshqa tomondan — ongli va aniq o'qishga o'rgatishi mumkin. Biroq, bolani xohlaydigan va xohlamaydigan ko'proq o'qishga majbur qilish mumkin emas, chunki haddan tashqari talablar faqat o'rganish istagini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR:

1. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi. Toshkent, 2017 yil 13 yanvar, “Xalq so'zi” gazetasi.
2. SH. Mirziyoev /Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. TOSHKENT - «O'ZBEKISTON» NMIU,- 2017

3. Sh. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz", Toshkent, O'zbekiston, NMIU, 2017 yil, 423-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori.- T.: 2017 yil 13 sentyabr.
5. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.T. Noshir.2009.296-b.
6. S. Matchonov va boshqalar, "O'qish darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish", Noshir, T. 2010.14-b.
7. Kitobxonlik saodatga eltadi: metodik-bibliografik qo'llanma / Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; Tuzuvchi M.Baltabaeva; Muharrir SHukur Qurbon. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2017. - 78 b.